

## BADIIY MATN ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI IJODIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

*Muminova Dilafro‘z Akbaraliyevna*

*Namangan davlat universiteti*

*Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim*

*kafedراسi mudiri,*

*pedagogika fanlari doktori (DSc), professor v.b [dilbarxon2008@mail.ru](mailto:dilbarxon2008@mail.ru)*

*Namangan davlat universiteti*

*Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

*Ibrohimova Shohsanam Muzaffar qizi*

**Annotation** *Ushbu maqola matn asosida boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni shakllantirish yo‘llari, badiiy matn asosida tafakkurni rivojlantirishga doir ma‘lumotlar berilgan.*

**Keywords.** *matn, ijod, ijodkorlik, ta‘lim va tarbiya, ta‘lim sifati, faraz, g‘oya, o‘quvchilar, badiiy matn, boshlang‘ich sinif, tafakkur.*

Bugungi ta‘lim islohotlaridan ko‘zlangan maqsad kelajagimiz bo‘lgan yoshlarning keng dunyoqarashga ega, yetuk insonlar sifatida tarbiyalashga erishishdir. “O‘qish o‘qitishning bosh yo‘nalishi ta‘limning turli bosqichlarida o‘quvchilar ongiga badiiy asarning mo‘jizakor ta‘sir kuchini amaliy jihatdan ta‘minlashga qaratilgan”ligi<sup>1</sup> bilan alohida mohiyatga ega.

O‘qish darslarida lirik asarlarni o‘rgatish o‘quvchi badiiy didini oshirishda, obrazli fikrlashni rivojlantirishda ahamiyatli sanaladi. Bu haqida professor U.Normatov shunday fikrlar bildiradi: “Nihoyat, yana bir gap. O‘qish fanida badiiy jarayon mohiyati va darajasini ko‘proq epik asarlar orqali belgilash tamoyili ustun. Biroq tajribadan ayonki, kichik bir she‘r ham yirik romanga teng ulkan missiyani ado etishi mumkin.

Umuman, asar tili, kitob haqida so‘z ketganda professor Nizomiddin Mahmudovning quyidagi fikrlarini eslash o‘rinli bo‘lardi: “Kitobdagi so‘z rost va raso bo‘lishi, kitoxonni ishontirishi, tuyg‘ulariga ta‘sir qilishi yoki, kamida, bu tuyg‘ularni qiynamasligi shart. Aks holda, kitobning sariq chaqalik qiymati qolmaydi. Kitob badiiy bo‘ladimi, ilmiy bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar, undagi til tugal, til idroki intizomi uchun ibrat maqomida bo‘lmog‘i lozim.

Matn – nutq ko‘rinishi bo‘lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo‘lib, u og‘zaki hamda yozma ijod namunasi hisoblanadi.

Badiiy ijod – bu borliqni inson tomonidan alohida olingan maxsulidir. Tashqi olamdan kirib kelayotgan hamma axborotni biz ma‘lum ichki kechinmalar bilan qabul qilamiz va voqealarni qaytalanishi, takrorlanib kelayotganda ular o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi, kechinmalarini bir – biriga bog‘laydi. Badiiy asar shunday qilib san‘atkor, ijodkor tomonidan tanlab olingan borliqning bir qismi bo‘lib, bu qismning yozuvchi tomonidan mushohada qilinishidir.

<sup>1</sup> Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент, 2010. – Б 8.



Ijod (arabcha – yaratish, kashf etish, vujudga keltirish)- badiiy, ilmiy- amaliy asar yoki moddiy boylikni yaratish, vujudga keltirish. Ijod- mohiyatan yaratuvchanlik faoliyati bo‘lib, inson ma’naviyatining amaldagi ko‘rinishini ifoda etadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo‘lmasada, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o‘qib o‘rganiladi. Bu asarlar o‘qilishi jarayonida bolada ijodiy tafakkur rivojlanadi. Bola o‘zi ijod qilish, turli obrazlarga kirish orqali badiiy asar qahramonlarini tafakkur qilib jonlantiradi.

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqealikning ongda aks ettirish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqealikni bilish quroli, shuningdek inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi, ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Shu bois boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlar orqali bola tafakkuri rivojlanadi. Badiiy matnni o‘rganishda savollarni, odatda, o‘qituvchilar beradi, ammo matn mazmunini tushungan holatda o‘quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali hisoblanadi. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, matn mazmunini yaxshi tushunish, o‘z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bo‘g‘lanishni to‘liq esda saqlab qolishda o‘quvchilarga yordam beradi. Ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma‘lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya‘ni o‘zlashtirilayotgan ma‘lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar

shaklida ta‘lim va tarbiya masalalari hal etiladi [1].

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo‘lmasada, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o‘qib o‘rganiladi. O‘qish darsliklariga, asosan, hikoya, she‘r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham o‘qitiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning o‘quvchilarga ta‘siri ham har xil bo‘ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she‘riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she‘r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoqlar predmet, voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikni taqqoslash orqali o‘zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o‘qishda o‘qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi [2].

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida, ayniqsa, bolalarning badiiy asarlarni o‘qib, hikoya qilib berishlariga katta ahamiyat beriladi. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berishga o‘rgatish va ularni sahnalashtirish, she‘rni yod oldirish o‘qituvchiga katta mahorat va mas‘uliyat yuklaydi. Muallif tomonidan badiiy asar mazmuni qanchalik yorqin ifodalangan bo‘lsa, unda ishtirok etuvchilarning nutqlari (gaplari) bolalarga ifodali, mazmunli yetkazilsa, u bolalarni hayajonlantiradi, his-tuyg‘ularining rivojlanishiga, asar qahramonlari bilan bo‘ladigan voqealarning uzoq esda saqlanishiga, lug‘atining boyishiga hamda nutqining grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllanib borishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bolalar hech qanday qiyinchiliksiz o‘qituvchining asar yuzasidan bergan savollariga javob bera oladilar, ayrim so‘zlarni, jumalarni takrorlaydilar, qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini xarakterlab beradilar, o‘qituvchiga taqlid qilib, ularning ovozi o‘xshatishga harakat qiladilar.



Darslarni tushuntirish jarayonida ilg‘or texnologiyalar qo‘llansa, darslarda nazariy, amaliy va ta‘limiy jihatdan samaradorlikka erishiladi. Natijada, o‘qituvchiga darsga ijodiy yondashish imkonini beradi va bu, o‘z navbatida, turli axborot resurslari bilan bilimlarini rivojlantirish, o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatini o‘stirish, ijodiy fikrlash, shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta‘lim sifatini oshirishga yordam beradi.

#### References:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonun.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 12-avgustdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-sonli Qonun. (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son).
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsan javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 102 b.
4. Акулова О.В., Гуревич Л.М. Чтение художественной литературы. – М.: Изд-во “Детство-Пресс”, 2012. – 192 с.
5. Куронбаев К.К. Педагогические основы развития духовной и социальной активности студентов (на примере молодёжных организаций): Автореф.дисс. ... канд.пед.наук. – Т.: 2000. – 23 с.
6. Леонтев А.А. Язык и речевая деятельность в общей и педагогической психологии. – М.: Изд-во МПСИ, 2004. – С. 471.
7. Akbaraliyeva M. D. CONTENT AND ESSENCE OF INTEREST IN LIBRARIES IN FAMILIES //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
8. Akbaraliyeva M. D. Library is a High Virtue //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 42-45.
9. Akbaraliyeva M. D. The Role of Reading in Personal Development //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 138-141.
10. Muminova D. A. THE BOOK IS THE LIGHT OF THE HEART, THE WING OF THINKING //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – С. 433-436.

